



O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTIDA BAHOR O‘ZGACHA BOSHLANDI FOTOREPORTAJ:

FOTOREPORTAJ:

Bahor fasli ayniqsa mart oyi yurtimizda turli tantanali kunlarga, yangilanishlarga boydir. Quyoshning zarrin nurlari qalblarga iliqlik, yuraklarga bahoriy kayfiyat bag‘ishlaydigan tabdil kunlar. Daraxtlar birma-bir kurtak ochadi, yerlardan ko‘tarilgan ko‘klam nafasi dimoqqa xush yoqadi. Bahoriy bayramlar ham o‘zining o‘zgacha tarovati bilan boshqalaridan farqlanadi: 8 mart – Xalqaro xotin qizlar kuni, 21 mart – Navro‘z sayli, sumalak va hokazolar.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida martning boshlanmasi har doimgidanda o‘zgacha kechdi. Bahor bayramlari,

o'zbekona yangi yil institutning professor o'qituvchilari va faol talabalari uchun o'zining saxovati hamda yutuqlari bilan birga keldi desak xato bo'lmaydi.

Shu munosabat bilan O'zDSMI o'quv teatrida sovrindor talabalarni hamda institutning faxriy o'qituvchilarni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda institut rektori Ibrohim Yuldashev tomonidan oliy ta'lim muassasasining faol hamda izlanuvchan a'zolariga faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari topshirildi.



Xalq ijodiyoti fakulteti Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish ta'lim yo'nalishi talabasi Ismanova Azizaxon Maxammadali qizi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori



Ergasheva Shohista Alijon qizi – Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori



So`z sovrindorlarga



Faol pedagog, jonkuyar ustoz Jo`ra Shukurov 70 yoshda



*Pedagogika kafedrasi o`qituvchisi, talabchan murabbiy
Sohibnazar Davlatov 60 yoshda*



Estrada va ommaviy tomoshalar kafedrası o`qıtuvchısı Karıma Zarıpova dotsentlık ilmiy unvoni bilan tabriklandı





Kino, televideniye va radio san`ati fakultetining bilimdon va chaqqon qizlari institut doirasida o`tkazilgan "balli qizlar" tanlovidagi faol ishtiroki uchun diplom va tashakkurnomalar bilan taqdirlandi

0`zDSMI Axborot xizmati